

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиутдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH



Karayev Payzillaxon Yusufxonovich

Namangan davlat texnika universiteti professori
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

Annotatsiya. Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida davlat moliyasini boshqarish tizimida xarajatlarni samarali rejalashtirishning ahamiyati, ularning oqilona taqsimlanishi va maqsadli sarflanishini ta'minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, budjet mablag'laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida budjet tashkilotlarida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: budjet tashkiloti, xarajatlar, xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy nazorat, ichki nazorat, budjet mablag'lari, samaradorlik, davlat moliyasi, moliyaviy boshqaruv, audit.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations and practical aspects of expenditure planning and financial control in budgetary organizations. The study analyzes the importance of effective expenditure planning in the public finance management system, as well as the mechanisms for their rational allocation and targeted use. It also addresses issues related to strengthening financial control over the use of budget funds, improving internal control systems, and implementing modern management approaches. As a result, scientific and practical recommendations aimed at improving the efficiency of expenditure management in budgetary organizations have been developed.

Keywords: budgetary organization, expenditures, expenditure planning, financial control, internal control, budget funds, efficiency, public finance, financial management, audit.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы и практические аспекты планирования расходов и организации финансового контроля в бюджетных организациях. В ходе исследования проанализировано значение эффективного планирования расходов в системе управления государственными финансами, механизмы их рационального распределения и целевого использования. Также рассмотрены вопросы усиления финансового контроля за использованием бюджетных средств, совершенствования системы внутреннего контроля и внедрения современных методов управления. В результате разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности управления расходами в бюджетных организациях.

Ключевые слова: бюджетная организация, расходы, планирование расходов, финансовый контроль, внутренний контроль, бюджетные средства, эффективность, государственные финансы, финансовое управление, аудит.



KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, budget tashkilotlarida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni asosli rejalashtirish hamda ularning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish davlat moliyaviy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Budget tashkilotlarining faoliyati bevosita davlat budgeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi sababli, ularning xarajatlarini rejalashtirish jarayonida aniqlik, shaffoflik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash zarurati ortib bormoqda. Shu bilan birga, moliyaviy nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki samarali tashkil etilmaganligi budget mablag'laridan noo'rin foydalanish holatlariga olib kelishi mumkin.

Mazkur sharoitda xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki puxta ishlab chiqilgan rejalashtirish tizimi moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilsa, samarali nazorat mexanizmlari esa rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy muammolarini tahlil qilish asosida ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida budget tashkilotlarining moliyaviy faoliyati tanlab olingan bo'lsa, tadqiqot predmeti xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimi hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazoratni tashkil etish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda turli ilmiy yondashuvlar shakllangan.

Xorijiy olimlardan R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan "Balanced Scorecard" konsepsiyasi tashkilotlarda strategik boshqaruvni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda nazorat tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv xarajatlarni rejalashtirish jarayonini strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi [1].

A. Anthony va V. Govindarajan boshqaruv nazorati tizimlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etishda rejalashtirish, monitoring va natijalarni baholash bosqichlarining uzviy bog'liqligini asoslab berganlar [2]. Ularning fikricha, samarali nazorat tizimi xarajatlar ustidan doimiy kuzatuvni ta'minlab, moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat moliyasini boshqarish masalalari Joseph E. Stiglitz tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, u o'z tadqiqotlarida davlat resurslaridan oqilona foydalanish va jamoat manfaatlarini ta'minlashda moliyaviy nazoratning muhim o'рни mavjudligini ta'kidlaydi [3].

MDH mamlakatlari olimlaridan I.A. Blank va V.V. Kovalevlarning ilmiy ishlari moliyaviy boshqaruv tizimida xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilishning nazariy asoslarini yoritib beradi. Ular byudjetlashtirish tizimini samarali tashkil etish orqali xarajatlarni optimallashtirish mumkinligini ko'rsatib o'tganlar [4; 5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh. Shodmonov va B. Yuldashevlarning ilmiy tadqiqotlarida davlat moliyasini boshqarish, budget tizimini isloh qilish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish masalalari keng yoritilgan. Ular budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va ichki audit tizimini rivojlantirish zarurligini asoslab berganlar [6; 7].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha nazariy asoslar yetarli darajada ishlab chiqilgan. Biroq budget tashkilotlarida ushbu tizimlarni amaliy jihatdan integratsiyalash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini o'rganishda tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar asosida mavjud amaliyot baholanib, umumlashtirish usuli orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimining samaradorligini baholash bugungi kunda davlat moliyasini boshqarishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot



doirasida tashkilotlar xarajatlarining tarkibi, ularning dinamikasi hamda moliyaviy nazorat tizimi kompleks tarzda o'rganildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, xarajatlarni rejalashtirish jarayoni ko'pincha an'anaviy yondashuvlarga tayanib, natijadorlik ko'rsatkichlari bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Bu esa budget mablag'laridan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Budget tashkilotlari xarajatlarining asosiy qismini ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar tashkil etadi. Shu bilan birga, moddiy xarajatlar hamda kapital qo'yilmalar ulushi tashkilotning moliyaviy strategiyasi va rivojlanish yo'nalishlarini aks ettiradi. Quyidagi jadvalda 2022–2025-yillar davomida xarajatlar tarkibi va ularning ulushi keltirilgan.

1-jadval. Budget tashkilotlari xarajatlarining tarkibi va ulushi (%)

Xarajat turlari	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	43	44	45	46
Ijtimoiy ajratmalar	11	12	12	12
Moddiy xarajatlar	20	19	18	18
Kapital qo'yilmalar	16	15	15	14
Boshqa xarajatlar	10	10	10	10

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar ulushi 2025-yilda 46 foizga yetgan. Mazkur holat budget tashkilotlari faoliyatida inson resurslariga bo'lgan ustuvor e'tiborni aks ettiradi. Shu bilan birga, moddiy xarajatlar hamda kapital qo'yilmalar ulushining kamayib borayotgani uzoq muddatli rivojlanish va investitsiya siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kapital qo'yilmalar ulushi 2025-yilda 14 foizni tashkil etib, uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi. Boshqa xarajatlar ulushi esa barqaror ravishda 10 foiz darajasida saqlanib qolgan.

Moliyaviy nazorat tizimi budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda 2022–2025-yillar davomida moliyaviy nazorat samaradorligi ko'rsatkichlari keltirilgan.

2-jadval. Moliyaviy nazorat samaradorligi ko'rsatkichlari (%)

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Reja asosida bajarilgan xarajatlar ulushi	84	86	88	89
Maqsadsiz sarflangan mablag'lar ulushi	6	5	4	3
Tejalgan mablag'lar ulushi	7	6	5	5
Aniqlangan moliyaviy buzilishlar	3	3	3	3

Jadval natijalari shuni ko'rsatadiki, reja asosida bajarilgan xarajatlar ulushi yil sayin oshib bormoqda. Bu holat moliyaviy nazorat mexanizmlarining samaradorligi yaxshilanib borayotganini anglatadi. Maqsadsiz sarflangan mablag'lar ulushi 2025-yilda 3 foizga tushgan bo'lib, bu budget intizomining mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Tejalgan mablag'lar ulushi esa 2025-yilda 5 foiz darajasida saqlanib qolgan. Mazkur holat xarajatlarni rejalashtirish jarayonida ayrim kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Aniqlangan moliyaviy buzilishlar ulushi ham barqaror 3 foiz darajasida qolgan bo'lib, bu ichki audit tizimi va nazorat mexanizmlarida tizimli muammolar mavjudligini bildiradi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Budget tashkilotlarida xarajatlarning asosiy ulushi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga to'g'ri keladi. Shu sababli inson resurslarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Moddiy xarajatlar va kapital qo'yilmalar ulushining kamayishi uzoq muddatli rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

3. Moliyaviy nazorat samaradorligi oshib borayotgan bo'lsa-da, aniqlangan moliyaviy buzilishlar va tejalgan mablag'lar ulushi tizimdagi kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi.

4. Xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv usullarini keng joriy etish zarur.

Ushbu tahlillar asosida budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish orqali davlat moliyasining barqarorligini oshirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimi davlat moliyasini samarali boshqarishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

1. Xarajatlarning tarkibi va ulushi. Budget tashkilotlarida xarajatlarning asosiy qismi ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga to'g'ri keladi. Shu sababli inson resurslarini boshqarish tizimi samaradorligini oshirish, xodimlarni rag'batlantirish hamda mehnat unumdorligini muntazam monitoring qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2. Xarajatlarni rejalashtirish samaradorligi. Moddiy xarajatlar va kapital qo'yilmalar ulushining kamayishi uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa budget tashkilotlarida resurslarni rejalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Moliyaviy nazorat samaradorligi. Reja asosida bajarilgan xarajatlar ulushi oshib borayotgan bo'lsa-da, aniqlangan moliyaviy buzilishlar va tejalgan mablag'lar ulushi tizimdagi kamchiliklar mavjudligini bildiradi. Shu bois ichki audit mexanizmlari va monitoring tizimlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

4. Raqamli va innovatsion boshqaruv. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv usullarini joriy etish umumiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Rejalashtirish tizimini optimallashtirish. Xarajatlarni prognozlash va rejalashtirishda natijadorlik va samaradorlik ko'rsatkichlarini inobatga olish, shuningdek, kapital va moddiy xarajatlarni strategik loyihalarga yo'naltirish zarur.

2. Ichki nazoratni kuchaytirish. Ichki audit va nazorat mexanizmlarini rivojlantirish, real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish hamda moliyaviy buzilishlarning oldini olish chora-tadbirlarini kuchaytirish lozim.

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Budget jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron hujjat aylanishini kengaytirish va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish. Budget tashkilotlari xodimlarining xarajatlarni boshqarish, moliyaviy nazorat va budget intizomi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda oshirib borish, samarali motivatsiya tizimini joriy etish zarur.

5. Strategik yondashuvni rivojlantirish. Xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlarini tashkilotlarning uzoq muddatli strategik maqsadlari bilan uyg'unlashtirish, resurslardan optimal foydalanish hamda ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni oshirish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari budget tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish orqali davlat moliyasining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va budget intizomini mustahkamlash imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilg'or boshqaruv texnologiyalari hamda raqamli vositalardan foydalanish jarayonlarni jadallashtirish va xatoliklar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
2. Anthony R.N., Govindarajan V. Management Control Systems. – New York: McGraw-Hill, 2007.
3. Stiglitz J.E. Economics of the Public Sector. – New York: W.W. Norton & Company, 2015.
4. Blank I.A. Finansovyy menedjment. – Kiyev: Nika-Center, 2004.
5. Kovalev V.V. Finansovyy analiz: upravlenie kapitalom. – Moskva: Finansy i statistika, 2008.
6. Shodmonov Sh.Sh. Davlat moliyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. Yuldashev B.B. Budget tizimi va islohotlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. Abdulazizovich X.U.B. Davlat-xususiy sheriklik modellari, shakllari va mexanizmlari tasnifi // Raqamli iqtisodiyot (Tsifrovaya ekonomika). – 2025. – No. 13 (I). – B. 2516–2532.
9. Kholmirzayev U.A. Economy of knowledge in the evolution of neoclassical and post-schumpeterian models of economic growth // Ilm, tadqiqot va taraqqiyot. – 2025. – Vol. 3, No. 11. – P. 70–77.
10. Abdulazizovich X.U. Bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida ta'lim sohasining rivojlanish tendensiyalari // Marketing jurnali. – 2025. – No. 2.



11. Abdulazizovich X.U. O'zbekiston Respublikasi hududlarida bilim iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholash uchun uslubiy yordamni shakllantirish // Marketing jurnali. – 2025. – No. 3.
12. Xolmirzayev U.B., Ubaydullayev T. Notijorat tashkilotlar faoliyatida auditorlik tekshiruvi va auditorlik hisobotlarining o'ziga xosligi // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – Vol. 4, No. 3.
13. Abdulazizovich X.U.B., Yoqubjon o'g'li B.Q. Budget tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish samaradorligi va budgetdan tashqari mablag'larning iqtisodiy ahamiyati // FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2026. – Vol. 14, No. 3. – P. 40–49.
14. Abdulazizovich X.U.B., Murodillayevich N.J. O'zbekistonda mahalliy budget daromadlari shakllanishining amaldagi holati tahlili // American Journal of Business Management. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – P. 43–51.
15. Abdulazizovich K.U. The superiority of cooperation over competition in the development process: theoretical and practical approaches // American Journal of Social Science. – 2026. – Vol. 4, No. 3. – P. 38–47.
16. Xolmirzayev U.A., Xakimova G.A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitor qarzlarning aylanishi tahliliga zamonaviy yondashuvlar. – Ilmiy maqola, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100